

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023-yil 07-08-2023 degi 344-sonli boshqari bilan tasdiqlangan.

TORT KILGAN:


O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

**70230203 — Badiiy tarjima (roman-german tillari) magistratura
mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari**

Malaka talablari "Oliy ta’lim davlat ta’lim standartlari, Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha malaka talablari va mutaxassisliklari klassifikatori", O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka va termosi malaka doiralarini (ramkasi), Axborot standartlar va kodlar bo‘yicha xizmat ko‘rsatish tashkilotlariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy ravj yordam uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

Toshkent - 2023



ISHLAB CHIQLIGAN:

- Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil "07" 08 dagi 344-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1	70230203 — <i>Badiiy tarjima (roman-german tillari)</i> magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi.....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	70230203 — <i>Badiiy tarjima (roman-german tillari)</i> magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	70230203 — <i>Badiiy tarjima (roman-german tillari)</i> magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlari tasnifi.....	5
1.2.1.	70230203 — <i>Badiiy tarjima (roman-german tillari)</i> magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....	5
1.2.2	70230203 — <i>Badiiy tarjima (roman-german tillari)</i> magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3.	70230203 — <i>Badiiy tarjima (roman-german tillari)</i> magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	70230203 — <i>Badiiy tarjima (roman-german tillari)</i> magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	70230203 — <i>Badiiy tarjima (roman-german tillari)</i> magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar	6
2.1	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	8
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	9
2.3.2.	70230203 — <i>Badiiy tarjima (roman-german tillari)</i> magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar.....	10
2.3.3.	70230203 — <i>Badiiy tarjima (roman-german tillari)</i> magistratura mutaxassisligi bo‘yicha ta‘lim dasturining tuzilishi.....	10
	Bibliografik ma‘lumotlar.....	11
	Kelishuv varag‘i.....	12

1. 70230203 — Badiiy tarjima (roman-german tillari) magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi

70230203 — Badiiy tarjima (roman-german tillari) magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 70230203 — Badiiy tarjima (roman-german tillari) magistratura mutaxassisligining malaka talabining qo'llanilishi

Malaka talabi **70230203 — Badiiy tarjima (roman-german tillari) magistratura mutaxassisligi** bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur mutaxassislik va tayyorgarlik darajasi bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul — oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari;
- magistratura mutaxassisliklarining ta'lim dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;
- o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);
- bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestasiya komissiyalari;
- oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;
- magistratura mutaxassisligini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan bakalavrlar va boshqa manfaatdorlar.

1.2. 70230203 — Badiiy tarjima (roman-german tillari) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi.

1.2.1. 70230203 — Badiiy tarjima (roman-german tillari) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.

70230203 — Badiiy tarjima (roman-german tillari) magistratura mutaxassisligi — badiiy tarjima ishlarini rivojlanishini tartibga solish, tarjimashunoslik ishlarini oqilona tashkil etish, tarjima resurslaridan to'g'ri foydalanish.

1.2.2. 70230203 — Badiiy tarjima (roman-german tillari) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- tegishli vazirliklar tizimi tashkilotlari;
- xalqaro tashkilotlar va ularning respublikamizdagi vakolatxonalari;
- bojxona, nashriyot, radio va televideniye tizimi tashkilotlari;
- xorijiy mamlakatlar elchixonalari;
- turli davlat va nodavlat korxonalarini;

- oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi tashkilotlari;
- davlat va mahalliy boshqaruv organlari boshqarmalari;
- ilmiy, texnikaviy va texnologik masalalar bilan bog'liq akademik, ilmiy tadqiqot va muassasa tashkilotlari;
- kasb-hunar kollejlari, akademik liseylar va oliy ta'lim muassasalari.

1.2.3. Mutaxassislik bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- *Tarjimonlik faoliyati;*
- *Ilmiy-tadqiqot faoliyati,*
- *Tashkiliy-boshqaruv faoliyati*

1.2.4. 70230203 — Badiiy tarjima (roman-german tillari) mutaxassisligi bo'yicha magistrnlarning kasbiy vazifalari:

70230203 — *Badiiy tarjima* (roman-german tillari) mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni to'liq bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

- Ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarda ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ishtirok etish;
- Badiiy tarjimaga oid axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- Ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- Tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish;
- Badiiy tarjimaga oid ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish va yangi ilmiy hamda amaliy natijalarga erishish;
- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;
- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatasion gotuklar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;
- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;
- badiiy xorijiy adabiyotlarni ATdan TTga tarjima qila olish qobiliyatiga ega bo'lish;
- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

- o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

- badiiy tarjima usullarini egallashi va ulardan unumli foydalanishi;

- xalqaro tashkilotlar va ularning faoliyati haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lishi;

- ilmiy va amaliy faoliyatda sohaga mos tizimni rivojlantirish va ulardan foydalanishi;

- kasbiy etika kodeksiga rioya qilishni bilishi lozim.

Konsalting xizmati faoliyatida:

- badiiy tarjima turlarini amaliyotda oqilona qo'llash bo'yicha analitik sharh ishlab chiqish;

- mutaxassislik bo'yicha mehnat bozorini tartibga solish va mehnatni tashkil qilishdagi mavjud holatning tahliliy sharhlarini ishlab chiqish *qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.*

2. 70230203 — Badiiy tarjima (roman-german tillari) mutaxassisligi bo'yicha magistrnlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, Badiiy tarjima muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- xorijiy tilda kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- O'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

- o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

- internet tarmog'idan axborotlarni olib, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- o'zbek va chet el mumtoz va hozirgi zamon adabiyoti asarlari, she'rlar, g'azallar,

sonetlar va boshqa janrlarni asliyatda tushunish, badiiy vositalar, milliy-madaniy soʻz va iboralar hamda lisoniy birliklarni oʻzbek tilidan chet tillarga va chet tillardan oʻzbek tiliga tarjima qilishda asliyat va tarjima asari tili leksik, semantik, frazeologik va stilistik qoidalarga rioya etish, shakl va mazmun birligiga eʼtibor qilish, imkon qadar asliyatga yaqin tarjima qilish; badiiy tarjimada asliyatdagi kabi estetik taʼsirni vujudga keltirish, badiiy obrazni toʻliq gavdalantirish uchun jumla qurilishini oʻzgartirish, turli usullarni qoʻllash, sheʼriy va nasriy tarjima turlarini bilish; badiiy tarjimada ekvivalentlik va adekvatlik, badiiy tarjimada maʼnaviy bilimlarni egallash; tarjimaning pragmatik jihatlari; tarjima modellarini bilishi, badiiy tarjima materiallarini tanqidiy tahlil qila olish, shunindék, milliy va xorijiy adabiyot namunalarini qiyosiy tahlil qilish orqali tarjima qilishi;

- xorijiy tilining nutqiy faoliyat turlarini, yaʼni fikrini ogʻzaki va yozma ifoda eta olishi, tinglab va oʻqib tushinish kabi koʻnikmalarga yetarlicha darajada ega boʻlishi;

- badiiy tarjima uslublari, texnikasi, amaliyoti hamda tarjima tanqidi haqida umumiy tasavvurga ega boʻlishi;

- ogʻzaki va yozma tarjima uslublarni farqlay olishi;

- har qanday turdagi, xususan, siyosiy, rasmiy turdagi hujjatlarni, matnlarni yozma tarjima qila olishi;

- badiiy tarjimaning asosiy xususiyati tilning badiiy vazifasidan kelib chiqib, tildagi badiiy maʼnoni boshqa tilning obrazli ifodaviy zaminiga oʻtkazish, badiiy asarlarni badiiy mahorat bilan tarjima qilish va uni tahlil, tahrir qilish konikmalariga ega boʻlishi;

- milliy va xorijiy adabiyot namunalarini, poetik asarlarni, mumtoz va folklor asarlarni hamda nasriy, nazmiy asarlarni erkin badiiy uslubda tarjima va tahrir qila olishi;

- filologik matnlarni shakllantira olishi, ularni roman-german tillariga tarjima qila va tahrir olishi va, aksincha, roman-german tillaridan oʻzbek tiliga filologik matnlarni tarjima va tahrir qila olishi;

- roman-german tillaridagi OAV, matbuot materiallarini tushunishi, tarjima qila olishi va, aksincha, oʻzbek tilidagi OAV, matbuot materiallarini roman-german tillariga tarjima va tahrir qila olishi;

- yozma tarjima va tahrirlash elementlarini bilishi, nazriyasi va amaliyoti haqida keng bilimlarga ega boʻlishi;

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni taʼminlaydigan fanlar va amaliyotlarga qoʻyiladigan talablar.

-Magistrantlar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va koʻnikmalarni egallashi oʻquv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni oʻzlashtirish, amaliyotlarni oʻtash hamda boshqa oʻquv mashgʻulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

-Majburiy fanlar – magistratura bosqichi taʼlim yoʻnalishi boʻyicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va koʻnikmalarni taʼminlaydigan fanlar majmuasidir.

-Tanlov fanlari – taʼlim yoʻnalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib

chuqurlashtirilgan, qo‘shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Magistratura mutaxassisligi bo‘yicha quyidagi ilmiy faoliyat o‘tkaziladi:

- Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish – magistrlik mavzusi doirasida ilmiy-nazariy adabiyotlar bilan tanishadi, ilmiy-tadqiqot ishini olib boradi.
- Ilmiy-pedagogik ish – magistrning kelgusida oliy ta’lim va quyi ta’limda pedagog sifatida faoliyat yuritishi hisobga olinib, dars jarayonini kuzatadi, bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.
- Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish) – magistrning nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi. Shu maqsadda ilmiy-tadqiqot muassasalarida amaliyot olib boradi.

2.3.1. Kvalifikatsiya: tarjimon (tadqiqotchi)

Kod	Tarjimonning nomlari	Kredit	Semestri
1.01	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	150	1
1.02	Filologik rammlar tajribasi va usuli	150	5
1.03	Amaliy matnlar-g‘ammi qiladi	300	10
1.04	Amaliy beadiy tarjima	300	10
1.05	Ilmiy-nobaliristik matnlar tarjimasini yaratish	150	5
1.06	Yozma tarjima va talim	270	9
1.07	Muxasir tarjima yaratish metodikasi	120	4
2.01	Tarjima fanlari	360	12
3.01	Tarjima fanlari (3 ta fan)	360	12
3.02	Ilmiy faoliyat	180	6
HAMMANI		1800	60

2.3.2 70230203 — *Badiiy tarjima (roman-german tillari)* magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	1440	48
Tanlov fanlar	360	12
Ilmiy faoliyat	1800	60
Jami	3600	120

2.3.3. 70230203 — *Badiiy tarjima (roman-german tillari)* magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T/r	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklari va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Jami kredit	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	1440	48	
1.01	ITM 1 05	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	150	5	1
1.02	FMTT 1 05	Filologik matnlar tarjimasi va tahriri	150	5	1
1.03	AIT 1,2 10	Amaliy roman-german tillari	300	10	1,2
1.04	ABD 1,2 10	Amaliy badiiy tarjima	300	10	1,2
1.05	BPMTT 2 05	Badiiy-publitsistik matnlar tarjimasi va tahriri	150	5	2
1.06	YTT 2,3 09	Yozma tarjima va tahrir	270	9	2,3
1.07	MFO'M 3 04	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	3
2.00		Tanlov fanlari	360	12	
2.00		<i>Tanlov fanlari (3 ta fan)</i>	360	12	1,2,3
3.00		Ilmiy faoliyat	1800	60	1-4
		HAMMASI	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'quv sikli, amaliy badiiy tarjima, og'zaki tarjimaning lingvomadaniy asreklari, xalqaro tashkilotlar va anjumanlar, og'zaki tarjima, ekvivalentlik, adekvatlik, tarjima transformasiyalari, ilmiy-texnik tarjima, badiiy tarjima usullari, axborot- kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, ilmiy-tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

KELISHUV VAROG'I

ISHLAB CHIQLDI:

**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti**



Rektor

Sh.Sirojiddinov

M.O'.

KELISHILDI:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi
Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va
ilg'or texnologiyalarni tadbiq etish markazi**



Direktor

Sh.Yakubov

M.O'.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti



Rektor

B.Kulmatov

2023 yil

M.O'

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
70230203 — Badiiy tarjima (roman-german tillari) magistratura mutaxassisligi
malaka talablari va o‘quv rejasini ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta‘lim
muassasalari va asosiy kadrlar iste‘molchilari o‘rtasida**

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“10” 07 2023-yil

Biz, quyida imzo chekuvchilar Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori Sh.Sirojiddinov, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori B.Kulmatov birgalikda ToshDO‘TAUda ishlab chiqilgan quyidagi **70230203 — Badiiy tarjima (roman-german tillari) magistratura mutaxassisligi malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:**

70230203 — Badiiy tarjima (roman-german tillari).

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5-iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyundagi “2022/2023-o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-5157-son Qarori va 2023-yil 15-iyundagi “2023/2024 o‘quv yili uchun davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida” F-31-son Farmoyishlariga hamda oliy ta‘lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarini ishlab chiqishda asosiy kadrlar iste‘molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va o‘quv dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talabi va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori**

Sh.Sirojiddinov

**O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
rektori**

B.Kulmatov